



**QUR'ON VA HADIS MANBALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA
ILMGA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK
ASOSLARI**

Najmiddinova Muhiba Akmalovna

NavDU. Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi magistranti

Ilmiy rahbar: Xodjiyeva Farog'at Oltiyevna

NavDU. Pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.n

Annotatsiya. Ushbu maqolada Islom dinining ilm-fan va ma'rifat bilan uzviy bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Islom ta'limotida ilm olishning ahamiyati Qur'oni karim oyatlari va hadislar asosida yoritilib, ilmning inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy yetuklikdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi tarixida yashab ijod qilgan allomalarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi ko'rsatib o'tiladi. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodda ilmga muhabbat, mustaqil fikrlash va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Islom dini, Qur'oni karim, hadis, Islom sivilizatsiyasi, ta'lim tarbiya, jamiyat taraqqiyoti, globallashuv, vahiy.

Abstract. The article examines the pedagogical foundations for developing students' motivation for knowledge based on the Qur'an and Hadith. It explores the ontological, epistemological, and axiological aspects of the concept of knowledge in the Qur'an and substantiates its motivational function. The study emphasizes that integrating religious and spiritual heritage with modern pedagogical approaches contributes to the development of intrinsic learning motivation and spiritual resilience among youth.

Key words: Islam religion, the Holy Qur'an, Hadith, Islamic civilization, scholars' heritage, education and upbringing, social development, globalization, revelation.



Globalashuv jarayoni inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ma'naviy hayotiga keskin ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy davrda yosh avlodni ma'naviy barkamol, mustahkam e'tiqodli va intellektual salohiyatli shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot oqimining haddan tashqari ortishi, g'oyaviy tahdidlar va ma'naviy relativizm sharoitida o'quvchilarda ilmga barqaror ichki motivatsiyani shakllantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Mazkur jarayonda diniy-ma'naviy meros, xususan Qur'on va hadis manbalarining pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Islom ta'limotida ilm inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Islom faqat diniy tizim emas, balki insoniyatning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlaydigan mukammal ta'lim va tarbiya manbai sifatida ham namoyon bo'ladi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yoshlarimizni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ezgulik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik fazilatlarini kamol toptirishda diniy-ma'naviy manbalarning pedagogik imkoniyatlaridan unumli foydalanish muhim va dolzarb vazifadir. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab avaylashga da'vat etadi."

Pedagogikada motivatsiya shaxsni maqsadli faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar tizimidir. Ta'lim motivatsiyasi esa bilishga ehtiyoj, intellektual qiziqish va o'zini rivojlantirish istagi bilan belgilanadi.

Zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda (A.Maslou, D.Makklelland, E.Desi va R.Rayan) ichki motivatsiya bilim olishning eng samarali shakli sifatida e'tirof etiladi. Islom ta'limotida ilmga da'vat aynan ichki ehtiyoj – ma'naviy komillikka intilish orqali asoslanadi. Bu jihat diniy manbalarni motivatsion resurs sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Qur'onning ilk nozil bo'lgan oyati ("Alaq" surasi) "Iqro'" – "O'qi" amri bilan boshlanadi. Bu faktning o'zi ilm konsepsiyasining aksiologik ustuvorligini belgilaydi. Pedagogik talqinda "Iqro":bilim olishga da'vat, tafakkurga



chaqiriq, ma'rifatga yo'naltirish, shaxsiy rivojlanishning boshlang'ich nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu yerda ilm diniy marosim emas, balki **ongli anglash jarayoni** sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy pedagogikada bu ichki (intrinsik) motivatsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi, chunki bilim olish buyruq emas, balki qadriyat sifatida beriladi.

Qur'oni Karimda "ilm" tushunchasi insoniyat kamolotining fundamental asosi sifatida talqin qilinadi. "Ilm" so'zi va uning hosilalari Qur'onda ko'p marotaba uchrashi, uning konseptual ahamiyatini ko'rsatadi. Bu tushuncha Qur'onda nafaqat axborot yoki bilim yig'indisi sifatida, balki haqiqatni anglash, tafakkur qilish, dalillash va ongli ravishda xulosa chiqarish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Ontologik jihatdan Qur'onda ilm Allohning sifatlaridan biri bilan bog'lanadi: "Al-'Alim" (Eng biluvchi). Bu esa ilmni ilohiy sifat bilan aloqador qadriyat darajasiga ko'taradi. Demak, ilm egallash jarayoni insonni ilohiy hikmatni anglash sari yo'naltiradi.

Gnoseologik nuqtai nazardan Qur'onda ilm:

- tafakkur (tafakkur qilish);
- tadabbur (chuqur o'ylash);
- taaqqul (aql yuritish);
- tazakkur (eslab, xulosa chiqarish) kabi bilish jarayonlari bilan uzviy

bog'langan.

Qur'onda ilm tushunchasi yuqori aksiologik maqomga ega. "Ayting: biladiganlar bilan bilmaydiganlar teng bo'lurmi?" (Zumar, 9) oyati ilmni ijtimoiy maqom va fazilat mezoni sifatida belgilaydi. Bu yondashuv o'quvchilarda bilim orqali o'zini namoyon etish ehtiyojini shakllantiradi.

"Baqara" surasi 30–34-oyatlarida Odam Ato voqeasi orqali insonning ilm tufayli ulug'lanishi bayon qilinadi. Alloh Odamga "barcha nomlarni o'rgatdi", farishtalar esa bu ilmni bilmasligini tan oldilar.

Bu voqea bir necha pedagogik xulosalarni beradi:



1. Ilm insonning asosiy ustunlik mezonidir.
2. Bilim shaxsni mas'uliyatli "xalifa" maqomiga olib chiqadi.
3. Ilm shaxsni ongli va erkin tanlov qiluvchi mavjudotga aylantiradi.

Pedagogik jihatdan bu o'quvchida o'zini rivojlantirish, mas'uliyatni anglash va liderlik sifatlarini shakllantiradi.

Qur'onda ilm faqat bilish jarayoni emas, balki axloqiy mas'uliyat bilan bog'lanadi. Ilm egasi adolatli, ongli va ijtimoiy faol bo'lishi lozim. Masalan: "Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm berilgan zotlarning darajalarini ko'tarur" (Mujodala,11). Bu oyatda ilm ijtimoiy maqomni belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu o'quvchida ijtimoiy tan olinishi uchun bilim olishga intilish motivini shakllantiradi.

Hadislarda ilm olish har bir musulmon uchun farz ekani ta'kidlanadi: "Ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir". Bu normativ yondashuv o'quvchida mas'uliyat motivini shakllantiradi.

"Kim ilm izlash yo'liga tushsa, Alloh unga jannat yo'lini oson qiladi" hadisi esa ilmning esxatologik (oxiratga oid) qadriyatini belgilaydi. Bu motivatsiya ikki qatlamli xarakterga ega:

1. Dunyoviy muvaffaqiyatga erishish
2. Ma'naviy mukofotga sazovor bo'lish

Pedagogik nuqtai nazardan bu ikki omil integrativ motivatsion modelni hosil qiladi.

Pedagogik jihatdan bu konsepsiya o'quvchilarda barqaror ichki motivatsiya, ma'naviy ong va intellektual faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, Qur'on manbalarini ilmiy-pedagogik tahlil asosida ta'lim jarayoniga integratsiya qilish yosh avlodda ilmga nisbatan ongli, barqaror va maqsadli qiziqishni rivojlantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Shunday qilib, diniy-ma'naviy manbalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarda barqaror ilmiy motivatsiya, ma'naviy immunitet va intellektual faollikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib



xizmat qiladi. Mazkur yondashuv Uchinchi Renessans g'oyasining g'oyaviy-pedagogik poydevorini mustahkamlashga, yosh avlodni ilmiy tafakkurga asoslangan, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi.
2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Tafsiri Hilol" Hilol-nashr
3. Imom al Buxoriy. "Al-Jome' as-Sahih" Munir nashriyoti Toshkent-2024
4. Will Durant. "The story of Civilization"
5. Shamsutdynova-Lebedyuk Tetiana Ph.D. Associate Professor Rivne state university of the humanities, The Influence of Islam on science and education in the middle ages
6. Samadova R., Jurayev H., Islom dinining madaniyat va ilm fan rivojiga ta'siri" 2025